

## SINF RAHBARINING O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDAGI RO'LI

**Kalmagambetova Aysuliw Maxset qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** *Bu maqolada o‘quvchilarning odob-axloq qoidalarini yaxshi tarbiyalash, bolalar va o‘qituvchi orasida ishonch munasabatlarining o‘rnatalishi, o‘quvchilar muomalasining mazmuni, har xil yoshdagi o‘quvchilar uchun muomalalarning o‘ziga xos hissiy-ma’naviy g‘oyasi ifodalanadi.*

**Tayanch so‘zlar:** *Odob-axloq, xalq pedagogikasi, boshlang‘ich sinf, pedagogik axborot, malakali tarbiyachi, muomala.*

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 29-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi “Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz faravonligi yanada yuksaltirish nomidagi ma’vzusida: biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi balki ularning eng zamonaviy intelektual bilimlarga ega bo‘lib ulg‘ayishini maqsad qilib qo‘yganmiz” deb aytib o‘tgan edilar. Odob-axloqlik belgisi- bu harqanday odamning xulq-atvor belgisidir. Shuningdek, xalq pedagogikasi nomunalarida odamlarning xulq-atvordagi yoqimli yoki yoqimsiz belgilarni ko‘rsatadigan donolik so‘zlarni boshlang‘ich sinflarda o‘rgatib bo‘rish maqsadga muvofiq Jamiyatning hozirgi yangilanish davrida xulq-atvor madaniyatining ahamiyati katta. Umumiy ta’lim maktablarida tarbiyaviy mazmundagi “Odoblilik siri nimada”, “Do‘stlik odobi”, “O‘quvchi va uning kiyinish odobi” kabi mavzuda bolalar bilan suhbat olib borsak ularda odod-axloq, madaniyat singari tushunchalar kengayadi. Sinf

rahbari o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagi me’yorlarga amal qilishi lozim :

- o‘quvchining ota-onasining ish joyiga, mansabiga, boyligiga qarab unga muomala qilmasligi shart;
- sinf rahbari o‘quvchilarga har doim ta’lim berish bilan bir qatorda tarbiyani ham birga o‘lib borishi kerak;
- tamagirlilik, yolg‘on gapirish, gerdayish, manmanlik, nodonlik kabi yomon illatlardan yiroq bo‘lishi lozim;
- o‘qituvchilar jamiyat nazarida olim hisoblanadi. Ular aysh-ishrat, kayf-safo, mayxo‘rlik kabi yomon ishlardan o‘zlarini tiya bilishi kerak.

Hammamizga ma’lumki, sinf rahbarining ota-onalar bilan to‘g‘ri muomala qila olishi juda murakkab ish. Chunki bugungi kun ota-onalari o‘rta va oliv ma’lumotli bo‘lib, vaqtli pedagogik axborotlarni, qonun va farmonlar haqida internet, ijtimoiy tarmoqlar, televide niye orqali bilib o‘lishmoqda. O‘quvchi shaxsining yuqori intellektual va ma’naviyatli, jamiyatga kerakli, komil inson bo‘lib tarbiyalanishida eng avvalo ota-onalardan va pedagoglardan hamma vaqt e’tibor, bilim va malakali tarbiyachi bo‘lish talab qilinadi. O‘z navbatida bolaga dastlabki tarbiya turlarini o‘rgatadigan ota-onalardan chuqur bilim va odob-axloq qoidalarini bilishi hamda o‘z harakatlarida, yurish-tutishida, gapirish o‘z tarbiyasini namoyon qila olishi lozim.

Sinf rahbari o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash jarayonida quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

~O‘z Vataniga, O‘zbekiston Respublikasiga yuksak muhabbat, sadoqat tuyg‘ularini, uning tabiyati, unda yashayotgan insonlar haqida, Vatanimiz himoyachilari va qahramonlar, ota-bobolarimiz va ularning qilgan ishlari, mehnatlari, meroslari tog‘risida bilishga intilishini tarbiyalash;

~ Vatanimizning tinchligi, necha asrlik boy tarixi, dunyo mamlakatlari undagi tashkilotlar haqida ma’lumot berish;

~ Bolalar o‘rtasida, qiz va o‘g‘il bolalar orasida do‘stona munosabat, bir-biriga yordam berish va hamjihatlikda harakat qilish tuyg‘ularini rivojlantirish;

~ Bolalarda kattalarga hurmat, kichiklarga e’tiborli, mehribon, bemor va nogiron insonlarga yordam berish, shirin gapirish, keksalar ahvoldidan xabar olish va ularga hushmuomala bo‘lishni tarbiyalash;

Xulosa qilib aytish joiz, o‘qituvchi bolalarni boshqalarning xatti-harakatlarining yaxshi yoki yomonligini, to‘g‘ri-noto‘g‘ri ekanligini farqlay olishiga, o‘zining va o‘rtoqlarining harakatlarigaadolatli baho berishga o‘rganitishi harakat qilishi lozim. O‘qituvchi pedagogik foaliyati davomida asosiy quroli bu-pedagogik muomala hisoblanadi. Bir qator pedagog va psiixolog-professorlar o‘zlarining ilimiytadqiqotlarida pedagogning mahorati, muomalasi ahamiyatli jihatlaridan ekanligi bayon etishgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. R. A. Mavlonova, N. X. Rahmonqulova, B. A. Normurodova, K.O. Matnazarova . “ Tarbiyaviy ishlar metodikasi” .
- 2 . Ilmiy metodik jurnal №1 . “ Muallim va uzluksiz ta’lim”.